


VII. KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)


Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- aprel holatiga, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxonalar va tashkilotlar soni (2022- yil 1- aprel holatiga, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- aprel holatiga 39061 tani tashkil etib, ulardan 37260 tasi yoki 95,4 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 5033 taga yoki 14,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yil yanvar-mart oylari davomida viloyatimizda 1850 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1278 taga kamaygan.


Ro'yxatga olingan hamda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi
(2022- yil 1- aprel holatiga)

	<i>Ro'yxatga olinganlar</i>		<i>Faoliyat ko'rsatayotganlar</i>	
	<i>birlik</i>	<i>yakunga nisbatan foizda</i>	<i>birlik</i>	<i>yakunga nisbatan foizda</i>
Jami	39 061	100,0	37 260	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	7 371	18,9	6 986	18,7
Sanoat	5 144	13,2	4 871	13,1
Qurilish	3 596	9,2	3 465	9,3
Savdo	11 023	28,2	10 478	28,1
Tashish va saqlash	1 012	2,6	982	2,6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 916	4,9	1 791	4,8
Axborot va aloqa	477	1,2	461	1,2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	828	2,1	791	2,1
Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	7 694	19,7	7 435	20,1


Korxonalar va tashkilotlar soni

	<i>2022- yil 1- aprel holatiga ro'yxatga olingan</i>	<i>2022- yil yanvar-mart oylarida</i>	
		<i>tashkil topdi</i>	<i>tugatildi</i>
Viloyat bo'yicha:	39061	1850	537
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi	7576	277	139
Shahrisabz	2159	88	31
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	2007	117	18
Dehqonobod	1847	140	27
Qamashi	2660	131	38
Qarshi	2829	134	28
Koson	3027	146	29
Kitob	2808	133	23
Mirishkor	1544	111	12
Muborak	1320	55	35
Nishon	1707	63	6
Kasbi	1771	100	37
Chiroqchi	3242	149	43
Shahrisabz	1920	93	24
Yakkabog'	2644	113	47


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- aprel holatiga)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- aprel holatiga, birlikda)






Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar- mart oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022- yil yanvar-mart oylarida eng katta ulushni savdo sohasi – 32,8 % (607 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 24,9 % (460 ta), sanoat – 17,4 % (321 ta) va boshqa turlar – 11,3 % (209 ta) hissasiga to'g'ri keladi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni (tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2022- yil 1- aprel holatiga, birlikda)




Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlarda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni (tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2022- yil 1- aprel holatiga, birlikda)



2022- yil 1- aprel holatiga 32447 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar– 9805 ta, oilaviy korxonalar– 4456 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 17483 ta, aksiyadorlik jamiyatlari – 43 ta, unitar korxonalar – 112 ta va boshqalar – 548 tani tashkil etganini ko'rishimiz mumkin.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi (2022- yil yanvar-mart oylarida, umumiy sonidagi ulushi)



2022- yilning yanvar-mart oylarida 1850 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 59,1 % tashkil etmoqda.

Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 1042 ta, oilaviy korxonalar 373 ta, xususiy korxonalar 358 ta, muassasalar 50 ta va boshqalar 27 tani tashkil etdi.

Oilaviy korxonalar soni (1- aprel holatiga, birlikda)




Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yil 1- aprel holatiga 4834 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 1675 taga yoki 1,5 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 4456 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 1455 taga yoki 1,5 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatmayotgan oilaviy korxonalar soni 378 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 220 taga oshganligini ko'rish mumkin.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni (2022- yil yanvar-mart oylarida, birlikda)




2022- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining asosiy qismi G'uzor (57 ta), Qarshi (53 ta), Chiroqchi (39 ta), Dehqonobod (37 ta), Shahrisabz (35 ta), Qarshi shahri (29 ta), Kitob (28 ta), Koson (22 ta), Mirishkor (15 ta), Qamashi (15 ta), Shahrisabz shahar (14 ta), Muborak (11 ta) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Aksincha, Nishon (9 ta), Yakkabog' (6 ta), Kasbi (3 ta) tumanlari korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (2022- yil 1- aprel holatiga, birlikda)


Tashkiliy - huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yil 1- aprel holatiga 18164 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 2909 taga yoki 19,1 % ga oshganligini ko'rsatmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 17483 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 2666 taga yoki 18,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1042 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 705 taga yoki 59,6 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimida soni (1- aprel holatiga, birlikda)




2022- yil 1- aprel holatiga faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimida jamiyati ulushi Qarshi shahrida 23,6 %, Koson 10,8 %, Qamashi 8,5 %, Chiroqchi 7,5 %, Yakkabog' 7,3 %, Qarshi 6,1 %, Kasbi 5,3 %, Mirishkor 5,1 %, Kitob 4,9 %, Nishon 4,4 %, Muborak 4,1 %, G'uzor 4,1 %, Shahrisabz shahrida 3,7 %, Shahrisabz 3,0 %, Dehqonobod tumanlarida 1,6 % ni tashkil etadi.

**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni
(2022- yil 1- aprel holatiga, birlikda)**


	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>Qo'shma korxonalar</i>	<i>Xorijiy korxonalar</i>
Qashqadaryo viloyati	231	156	75
G'uzor	11	8	3
Dehqonobod	14	10	4
Qamashi	13	9	4
Qarshi	16	10	6
Koson	22	12	10
Kitob	17	11	6
Mirishkor	8	5	3
Muborak	9	5	4
Nishon	17	13	4
Kasbi	6	3	3
Chiroqchi	13	11	2
Shahrisabz	5	3	2
Yakkabog'	15	9	6
Qarshi sh.	58	44	14
Shahrisabz sh.	7	3	4

Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tarkibi, foizda




Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma‘lumotlarni 2022- yil 1- aprel holatiga ko‘rsak eng ko‘p sanoatda 108 ta (46,8 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 47 ta (20,3 %) hamda savdoda 36 ta (15,6 %), qurilishda 14 ta (6,1 %), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda mos ravishda 8 ta (3,5%) tashkil qilgan. Eng kamlari esa axborot va aloqa 1 ta (0,4%), tashish va saqlash 4 ta (1,7 %), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda 6 ta (2,6%) ni tashkil qilgan. Shundan ko‘rinib turibdiki, faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi faoliyat turiga to‘g‘ri kelarkan. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqada, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, tashish va saqlash faoliyat turlariga to‘g‘ri keladi.

Kichik tadbikorlik subyektlari soni
(2022- yil 1- aprel holatiga, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(1- aprel holatiga, birlikda)



**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(1- aprel holatiga, birlikda)**

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>mikrofirmalar</i>	<i>kichik korxonalar</i>
Qashqadaryo viloyati	32257	30954	1303
G'uzor	1662	1595	67
Dehqonobod	1492	1469	23
Qamashi	2253	2208	45
Qarshi	2360	2271	89
Koson	2612	2557	55
Kitob	2351	2229	122
Mirishkor	1265	1246	19
Muborak	1070	1038	32
Nishon	1394	1344	50
Kasbi	1446	1398	48
Chiroqchi	2646	2567	79
Shahrisabz	1513	1462	51
Yakkabog'	2155	2085	70
Qarshi sh.	6263	5813	450
Shahrisabz sh.	1775	1672	103

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan, avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Faoliyat ko'rsatmayotgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi - ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik sub'ektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar - norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida 2022- yil 1- aprel holatiga (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.